

# SODDA YASAMA SHAKLIDAGI IQTISODIY TERMINLAR

Sultanova Dilfuza Choriyevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

## ПРОСТЫЕ ПРОИЗВОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ

Султанова Дилфузা Чориевна

Магистрант Термезского университета экономики и  
сервиса

### SIMPLE DERIVATIVE ECONOMIC TERMS

Sultanova Dilfuza Choriyevna

Master's student at Termiz University of Economics and  
Service

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada iqtisodiy terminlar tizimida sodda yasama shakldagi atamalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tilshunoslik va iqtisodiyot sohalari kesishmasida yuzaga kelgan bunday terminlar iqtisodiy tushunchalarni aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Maqolada o'zbek tilidagi asosiy sodda yasama iqtisodiy terminlar namunalar orqali ko'rib chiqilib, ularning rus va ingliz tillaridagi mos tarjimalari keltiriladi.

*Kalit so'zlar:* iqtisodiy termin, sodda yasama, tilshunoslik, tarjima, atama, iqtisodiy tushuncha

*Аннотация.* В данной статье рассматривается роль и значение простых производных экономических терминов в системе экономической терминологии. Подобные термины, возникшие на стыке лингвистики и экономики, служат для точного и лаконичного выражения экономических понятий. В статье приведены примеры простых производных терминов на узбекском языке и их эквиваленты на русском и английском языках.

**Ключевые слова:** экономический термин, простое производное, лингвистика, перевод, терминология, экономическое понятие

*Abstract.* This article analyzes the role and importance of simple derivative economic terms within the system of economic terminology. Such terms, formed at the intersection of linguistics and economics, help convey economic concepts clearly and concisely. The article provides examples of Uzbek simple derivative economic terms and their equivalents in Russian and English.

**Keywords:** economic term, simple derivative, linguistics, translation, terminology, economic concept.

#### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Iqtisodiy terminlarning shakllanish usullariga ko'ra ikkinchi turi bu morfologik yoki affiksal usul deb ataladi. Morfologik (affiksal) usul sodda tub terminlarga so'z yasovchi qo'shimcha affiks qo'shish orqali yasaladi. Yasovchi qo'shimcha qo'shilganda albatta so'zda yangi ma'no hosil bo'ladi. O'z navbatida affiks ikki turga ya'ni prefiks (old qo'shimcha) va suffiks (so'z oxiriga qo'shiladigan qo'shimcha) larga bo'linadi. Har bir soha terminlarining o'z yasovchi qo'shimchalari mavjud.



e-mail:

sultanova.dilfuza@bk.ru

<https://orcid.org/0009-0003-9216-4757>

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

#### (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Sodda yasama shaklidagi iqtisodiy terminlarni o'rganishda bir qator muhim ilmiy, normativ va amaliy manbalar tahlil qilindi. Jumladan, A. Madvaliyev muharrirligidagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" ushbu terminlarning lingvistik tuzilishini tahlil qilishda asosiy manba sifatida xizmat qildi. Mazkur lug'atda ko'plab iqtisodiy mazmunga ega so'zlar sodda yasama shaklda keltirilgan bo'lib, ularning semantik

yuklamasi, morfologik tuzilishi va qo'llanish doirasi aniqlashtirib berilgan.

Amaliy jihatdan esa, X.R. Raxmonqulov va B.Jo'rayev tomonidan yozilgan "Tadbirkorlik va Biznes" darsligi asosida sodda yasama terminlarning real iqtisodiy faoliyatdagi o'rni yoritib berildi. Kitobda bozor iqtisodiyoti, xizmat ko'rsatish sohasi, ishlab chiqarish jarayoni, investitsiya faoliyati kabi ko'plab tushunchalar sodda yasama shaklda keltirilib, ularning amaliy qo'llanilishi misollar orqali ko'rsatib berilgan [3].

**MUHOKAMA/ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION**  
Iqtisodiyot terminologiyasida quyidagi affikslar ishtirotkida ayni shu sohaning terminlari hosil bo'lganligini ko'rish mumkin.

O'zbek tilida juda faol bo'lgan -chi qo'shimchasi birinchi galda, turli kategoriyalarga oid shaxs nomlarini yasab keladi.

Iqtisodiy terminologik tizimida ham u iqtisodning biror sohasida ish olib boruvchi shaxs ma'nosidagi ko'plab terminlarni yasab keladi: iqtisodchi (economist), xazinachi (treasurer), saralovchi (sorter), ijarachi (lessee), iste'molchi (consumer), soliqchi (taxman), ta'minlovchi (supplier), pudratchi (contractor), sanoatchi (industryalist), hisobchi (accountant), nazoratchi (controller), moliyachi (financier), omonatchi (depositor), raqobatchi (competitor), buyurtmachi (customer), kafolatlovchi (guarantor) va boshqalar [2].

-ma affiksi o'zbek tilida xilma-xil ma'noni ifodalovchi leksemalar yasaydi. Uning ayrimlari terminologik tizimlarda birmuncha faol ekanligini qator ilmiy ishlar misolida ko'rish mumkin. Bu affiks yordamida, garchi kam miqdorda bo'lsa ham, har holda ayrim iqtisodiy terminlar yasalganki, quyidagi misollar fikrimizni tasdiqlay oladi: g'amlanma (arrangement), ustama (addition), uyushma (association), birlashma (union), tuzilma (structure), buyurtma (order), boiinma (devision), undirma (levy) va boshqalar [1].

**-kor** affiksi asosdan anglashilgan narsa-predmetni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasasa (paxtakor, g'allakor kabi), iqtisodiy terminologik tizimda mavhum otlarga qo'shilib, ulardan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs oti yasaydi: chorakor (quarterback), tadbirkor (entrepreneur), tejamkor (saver), sohibkor (entrepreneur) va boshqalar.

**-dor** affiksi asosdan anglashilgan narsa-predmetga ega bo'lgan shaxs nomini hosil qiladi.

Masalan, mulkdor (owner), xaridor (buyer), qarzdor (debtor), nasiyador (creditor), sarmoyador (investor), hissador (shareholder) va boshqalar.

**-noma** affiksi iqtisodiy terminologik tizimda asosdan anglashilgan narsani ifodalovchi matn, xat va shu kabilami bildiradi. Masalan, omonatnoma (depository), shartnoma (contract), yo'riqnoma (instruction), ruxsatnoma (permission), so'rovnama (questionnaire), topshiriqnama (assignment) va boshqalar.

**-ot** (-at, -yot, -yat) affiksi aslida arabiylar leksemalar tarkibidagina lug'aviy birliklarini yasab kelgan mazkur so'z yasovchi qator terminologik tizimlarda bir qadar faolligi bilan ishtirot etib kelmoqda. Buni quyidagi iqtisodiy terminlar misolida yaqqol ko'rish mumkin: taqsimot (distribution), hisobot (reporting), iqtisodiyot (economy), qadriyat (value), ta'minot (value), mahsulot (product), raqobat (competition) va boshqalar.

**-xona** affiksi ishtirotkida: bojxona (customs office), zarbxona (mint) va boshqalar.

**-lik** affiksi o'zbek tilshunosligida mazkur affiksning so'z yasash xususiyatlari xususida qator maqolalar, hatto nomzodlik ishi ham himoya qilingan. Bu ishlarda uning asosiy vazifalaridan biri mavhum otlar yasashdan iborat ekanligi alohida ta'kidlangan. Iqtisodiyot ham ko'proq abstrakt tushunchalar bilan ish ko'rganligi boisidan uning terminologik tizimida -lik affiksi yordamida ko'plab terminlarning yasalganligini quyidagi misollar yaqqol tasdiqlay oladi: taqchillik (scarcity), tanqislik (paucity), mulkchilik (ownership), foydalilik (usefulness), boqimandalik (affluence), manfaatdorlik (interest), mahsuldorlik (productivity), rentabellik (profitability), xo'jalik (economy), ustuvorlik (priority), samaradorlik (efficiency), yetuklik (maturity), alohidalik (separateness), mustaqillik (independence) va boshqalar.

**-be** affiksi ishtirotkida: behisob (countless), bebahlo (priceless), bepul (free), befoyda (worthless), bevosita (direct) va boshqalar.

**-siz** affiksi ishtirotkida: hisobsiz (countless), bahosiz (priceless) va boshqalar. Bunda -be affiksi bilan -siz affiksi sinonim holda qo'llangan: behisob-hisobsiz [3].

**-xo'r** affiksi aslida fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan yaxlit leksemalar tarkibida mavjud bo'lgan mazkur affiks hozirgi bosqichda ko'plab

asosdan anglashilgan narsani doim iste'mol qiluvchi, shuni yaxshi ko'ravchi ma'nosidagi shaxs nomlarini yasab kelganki, u iqtisodiyot atamashunosligida ham qator terminlar tarkibida o'z vazifasini ado etib kelmoqda. Quyida keltirilgan misollar shundan dalolat beradi: foydaxo'r (user), sudxo'r (lender), nafaqaxo'r (pensioner), merosxo'r (heir) va boshqalar [4].

**NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ/RESULTS).** Hozirgi iqtisodiyot terminologiyasida, qayd etilgan affikslardan tashqari, garchi kam miqdorda bo'lsa-da, yana ayrim affikslar ishtirokida terminlar hosil qilingan. Shunday affiksli iqtisodiy terminlar jumlasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

**-m (-im)** affiksli terminlar: boqim (feed), bitim (deal), kirim (enter), chiqim (exit).

**-v (-ov)** affiksli terminlar: to'lov (charge), oichov (measure).

**-q (-iq)** affiksli terminlar: soliq (tax), sotiq (sales).

**-gar** affiksli terminlar: savdogar (merchant).

Iqtisodiy terminologik tizimda, qayd etilganlardan tashqari, ayrim murakkab affikslar ishtirokida ham termin yasash ancha faollashganligi kuzatildi. Mana shunday affikslar jumlasiga quyidagilarni keltirish mumkin [1].

Iqtisodiy terminlarning **-chilik** affiksi bilan yasalishi. Iqtisodiyotga oid terminologik tizimda -chilik affiksi biror narsa bilan bog'liq bo'lgan holatni anglatuvchi terminlarni yasaydi: tijoratchilik (commercialism), mulkchilik (ownership), kasanachilik (household).

Iqtisodiy terminlarning **-korlik** murakkab affiksi bilan yasalishi. Fors tojikcha -kor affiksiga asli o'zbekcha -lik yasovchisining qo'shilib ketishidan hosil bo'lgan -korlik affiksi ham ko'plab iqtisodiy terminlar yasashda ishtirok etib kelmoqda: tejamkorlik (thrift), tadbirkorlik (entrepreneurship).

Iqtisodiy terminlarning **-lilik** affiksi bilan yasalishi. Ayni shu affiks ishtirokida yasalgan qator terminlar iqtisodiyot sohasida keng qo'llanmoqda: tejamlilik (economy), unumlilik (productivity), likvidlilik (liquidity).

O'zbekcha **-lik** va forsiy **-dor** affikslarining birikuvidan tashkil topgan mazkur murakkab affiks iqtisodiy terminlar tarkibida ishtirok etmoqdaki, buni quyidagi misollar tasdiqlay oladi: mahsulorlik (productivity), mulkdorlik (ownership),

aksiyadorlik (shareholding), samaradorlik (efficiency), unumdorlik (productivity) [3].

Oddiy so'zlar ma'nosini o'zgartirish yo'li bilan yangi termin yasash ko'pgina tillarda xalqaro sohalarda lug'at boyligini oshirishga imkon berdi. Xalqaro terminlarning kattagina miqdori umumadabiy til so'zlarining, ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlardan olingan terminlarning ma'nolarini o'zgartirish yo'li bilan boyitilgan. Terminlar yasashning bu usuli boshqalardan shunisi bilan farq qiladiki, boshqa hollarda yangi tushunchani ifodalash uchun qaytadan yangi shakl yaratilsa, bu yerda yangi mazmun ma'no eski shakliga joylashtiriladi. Ma'noni o'zgartirish yo'li bilan termin yasashning o'ziga xos tomoni shundaki, terminlashtirilayotgan obyekt har doim nomi termin sifatida qo'llanilayotgan predmet yoki hodisa bilan qandaydir umumiylukka ega bo'ladi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).** Xulosa qilib aytganda, hozirgi o'zbek tilining iqtisodiy terminologik tizimida morfologik yoki affiksal usul bilan terminlar hosil qilish anchagina faol hisoblanadi, chunki bu jarayonda xilma-xil affikslardan (so'z yasovchi qo'shimchalardan) yoki affiksoidlardan keng foydalanib kelinmoqda. Demak, bozor iqtisodiyotining o'tish davrida morfologik usul orqali yasalgan yangi-yangi terminlarning kirib kelishi iqtisodiyot terminologiyasining boyib borishida muhim rol o'yaydi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)**

1. Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2004.
2. Qosimova M., Jabborova Sh. Ziyoratova M. O'zbek tilida iqtisodiyotga oid atamalarni qo'llanishi. "Iqtisodiy va innovatsion texnologiya ilmiy elektron jumali. 4-son. 2020.
3. Raxmonqulov X.R., Jo'rayev B., Tadbirkorlik va Biznes. – Toshkent: G'.G'ulom, 2002.
4. Xolmirzayev SH. Terminlarning yasalash usuli va yo'llari. Academic research in Education Science V-3, 2022. – B.33-35.